

# Milliy media assotsiatsiyasi raisi O'zDSMI talabalari bilan davra suhbatini o'tkazdi

Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori hamda Milliy media assotsiatsiyasi raisi Sherzodxon Qudratxo'ja O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga tashrif buyurib, kino, televideniye va radio san'ati fakulteti talabalari bilan davra suhbatini o'tkazdi.

Uchrashuv davomida o'zbek filmlarining saviyasi hamda uning jamiyatga ta'siri to'g'risida fikr bildirildi. Shuningdek, o'zaro hamkorlik asosida sifatli film va seriallar, multfilmlar, yoshlar ongini shakllantirishga xizmat qiladigan videoroliklar suratga olish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Qolaversa, talabalarning moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash borasida Milliy media assotsiatsiyasi hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rahbariyati tomonidan yetarli shart-sharoit yaratilishi aytib o'tildi.







---

# **Olam nafas olgan havosan – ayol!**

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida 8-mart – Xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi.

Tong chog'idan bayramona muhit hukm surib, oliygoh hovlisi, kirish yo'li bezatildi hamda institut jamoasi va Yoshlar Ittifoqi tashkiloti faollari ishtirokida ta'lim muassasasida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar ko'tarinki kayfiyatda kutib olindi.

Qolaversa, o'quv teatrida «Olam nafas olgan havosan – ayol» deb nomlangan konsert dasturi o'tkazildi.

Konsertni Madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari Avazxon Tadjixanov hamda institut rektori v.b. Eldor Shermanov kirish so'zi bilan ochib berib, munis va mehribon ayollar hamda go'zal va ilmga chanqoq qizlarni bayrami bilan tabrikladi.

Shuningdek, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'irotboy Sharipov tomonidan san'atshunoslik kafedراسи dotsenti Sabohat Hayitmatova, madaniyat va san'at menejmenti kafedراسи professori Manzura Yuldasheva hamda madaniyatshunoslik kafedراسи dotsenti Qunduzxon Nishonboyevaga yo'llangan bayram tabrigi o'qib eshittirildi hamda vazirlik

faxriy yorliqlari topshirildi.

Bundan tashqari, folklor va etnografiya kafedrası o'qituvchisi Kamola Toshmatova falsafa doktori (PhD) diplomi hamda madaniyat va san'at menejmenti kafedrası dotsenti Dilafro'z Yusupaliyevaga fan doktori ilmiy unvoni topshirildi.

Badiiy kechada xalq artistlari va xofizlari, el suygan san'atkorlar hamda iqtidorli talabalar tomonidan ayol siymosi ulug'langan kuy va qo'shiqlar ijro etildi. Konsert dasturi raqslarga ulanib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.





---

# **0‘zDSMI ijodiy jamoasi ikki oliygohda bayram tadbiri o‘tkazdi**

0‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlash tirish bo‘limi boshlig‘i Shohruh Rahmatov tashabbusi bilan oliygohning ijodiy jamoasi 8-mart – Xotin-qizlar kuni munosabati bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti hamda Toshkent pediatriya tibbiyot institutida konsert dasturi namoyish etdi.





---

# O'zDSMIda Qirg'iz Respublikasi professor- o'qituvchi va talabalari malaka oshirdi


Xabaringiz bor, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda Qirg'iz davlat madaniyat va san'at universiteti o'rtasida memorandum imzolangandi.

Ushbu hamkorlik aloqalariga muvofiq, ikki oliygoh o'rtasida talabalar almashinuvi qo'yilib, professor-o'qituvchilar ishtirokida mahorat darslari tashkil etilmoqda.

Shu jumladan, qo'shni oliygoh professor-o'qituvchi va talabalari O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida dars jarayonlarida bevosita ishtirok etib, malaka oshirdi.

Bugun institut rektori v.b. Eldor Shermanov Qirg'iz Respublikasidan kelgan delegatsiya vakillari bilan uchrashib, do'stona aloqalar uchun minnatdorchilik bildirdi hamda ularga sertifikat topshirdi.







---

# **Buyuk Britaniyaning Goldsmits universiteti vakili O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti faxriy professoriga aylandi**

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga Buyuk Britaniya poytaxti London shahridagi Goldsmits universiteti qoshidagi "Ijodiy va madaniy tadbirkorlik instituti" direktori Jerald Lidston tashrif buyurdi.

Tashrif davomida Jerald Lidston hamda oliygohimiz rektori v.b. Eldor Shermanov ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi. Muloqot davomida madaniyat va san'at menejmenti, turizm, dizayn va boshqa sohalarda hamkorlik qilish masalalari muhokama qilindi.

E'tiborlisi, Jerald Lidstonga O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti faxriy professori ilmiy unvoni topshirildi. Qolaversa, mehmon oliygohdagi dars jarayonlarini ko'zdan kechirdi.

Ma'lumot uchun, Jerald Lidston magistratura yo'nalishidagi bir qator o'quv dasturlari, jumladan, "San'at va madaniyat


siyosatini boshqarish” magistratura o‘quv ta’lim dasturi muallifi hisoblanadi. Mutaxassis dastlab sahna dizayneri, menejeri va yoritish bo‘yicha dizayner sifatida faoliyat olib borgan bo‘lib, Sharqiy Yevropa va AQSHda katta ish tajribasiga ega hisoblanadi.

Shuningdek, u O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti bilan 5 yildan beri hamkorlik qilib kelmoqda. Jumladan, institut professor-o‘qituvchilari bilan hamkorlikdagi «Creativ Spark» grant loyihasi, qolaversa talabalarimizga ham bir necha bor dars mashg‘uloti olib borgan.

Qolaversa, Britaniya Kengashi va boshqa agentliklarda hamda 20 dan ortiq mamlakatda san‘at va madaniyatni boshqarish o‘quv kurslarida ta’lim bergan. Jumladan, Vyetnam Madaniyat, sport va turizm vazirligi tomonidan tashkillashtirilgan hamda fond jamg‘armasi tomonidan moliyalashtirilgan “San‘at menejmenti” bo‘yicha Xanoy madaniyat universitetida 12 yillik loyihani amalga oshirgan.

Bundan tashqari, mutaxassis Slovakiyada san‘at menejmenti bo‘yicha ta’limni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha to‘rt yillik Britaniya Nou Xau jamg‘armasi loyihasining direktori bo‘lgan. Natijada, slovak tilida san‘at menejmenti bo‘yicha birinchi kitob nashr etildi hamda ushbu davlatda Britaniya Kengashining “Muzeyga yaqin bo‘l” loyihasini amalga oshirgan.







---

## **0‘zDSMI Ilmiy Kengashining 7-sonli yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi**

Bugun O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Ilmiy Kengashining 7-sonli yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda oliygoh rahbariyati, kengash a‘zolari, dekan va uning o‘rinbosarlari, kafedra mudirlari, bo‘lim boshliqlari va boshqalar ishtirok etdi.


Dastlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Farmoyishlari va topshiriqlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va bayoni, Vazirliklarning buyruqlari va topshiriqlarining bajarilishi to‘g‘risida

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, ichki nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i axboroti eshitildi.

**Shuningdek, Kengashda quyidagi masalalar to'g'risidagi hisobotlar tinglandi:**

- 2023/2024-o'quv yili birinchi yarim yillik yakunlari bo'yicha o'quv faoliyat natijalari to'g'risida;*
- axborot-resurs markazida professor-o'qituvchilarning maqolalari bazasini tashkil etish holati;*
- institutda ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga doir tashkiliy ishlar;*
- talabalarning malakaviy amaliyotini samarali tashkil etish va boshqa masalalar.*

Kengash yakunida belgilangan vazifalar bo'yicha mas'ullarga topshiriqlar berildi.









---

# **Adiblar xiyobonida Zulfiyaxonim tavalldiga bag'ishlangan ma'naviy- ma'rifiy tadbirda O'zDSMI talabalari ishtirok etdi**

O'zbek xalqining sevimli shoirasi, O'zbekiston xalq shoiri Zulfiya Isroilova mustaqillik yillarida ibratli hayot kechirgan, keng ijtimoiy faoliyat olib borgan shoira betakror iste'dodi, Vatanga muhabbati, oliyjanob insoniy fazilatlari, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishdagi xizmatlari uchun yuksak hurmat va e'zozga sazovor bo'lgan.

Bahorning ilk kuni mamlakatimizda adabiyot, she'riyat, nazm va navo bayrami, sadoqat, do'stlik, mehnatsevarlik singari insoniy tuyug'ularning tantanasiga hamohang tarzda nishonlanishi bejiz emas.

Shu munosabat bilan Kino, televideniye va radio san'ati fakultetining professor-o'qituvchilar va talabalarining ishtirokida Adiblar xiyobonida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.



---

# **0‘zDSMI rektori v.b. Eldor Shermanov talabalar turar joyida qolib, yoshlar bilan ma‘daniy-ma‘rifiy va sport tadbirlarida ishtirok etdi**

28-fevral kuni O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori v.b. Eldor Shermanov davlatimiz rahbarining ijtimoiy sohaga oid videoselektorda bergan topshiriqlari ijrosini ta‘minlash maqsadida talabalar turar joyiga tashrif buyurib, talabalar holidan xabar oldi.

Suhbat davomida moddiy ko‘makka muhtoj talabalarga yordam ko‘rsatish, ularni kasbga o‘rgatish, talabalarni qiynayotgan boshqa masala va muammolar tinglanib, ularga yechimlar topildi.

Jumladan, 2-talabalar turar joyida istiqomat qiluvchi talaba-qizlar bilan muloqot chog‘ida ishga kirib ishlashni va o‘z sohasida amaliy tajribaga ega bo‘lishni xohlagan 3-bosqich talabasi Anorboyeva Nilufarni talabalar turar joyida faoliyati yo‘lga qo‘yilgan kutubxonaga ishga joylashtirish bo‘yicha mas‘ullarga ko‘rsatma berildi.

1-talabalar turar joyidagi talaba qizlar bilan bo‘lib o‘tgan suhbat davomida zamonaviy kompyuter bilimlarini egallashni maqsad qilgan talaba Rahmonova Dinoraga zamonaviy kompyuter olib berilishi qayd etildi.

Yoshlar tomonidan berilgan yana bir qator samarali takliflar

ijrosini ta'minlash borasida vazifalar belgilandi.

Rektor yotoqxonada talabalar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishib, TTJdagi yashash xonalari, dars xonalari, kutubxona, kompyuter zali, ma'naviyat xonasi, tikuv sexi ko'zdan kechirdi.

Shuningdek, rektor yoshlarning bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazish maqsadida tashkil etilgan ma'daniy-ma'rifiy va sport to'garaklari faoliyati bilan tanishdi.

Qolaversa, rektor talaba-yoshlar tomonidan tashkil etilgan «Gulxan kechasi»da qatnashib, ularning quvonchiga sherik bo'ldi hamda talaba-qizlar bilan sport zalida voleybol o'yinida ishtirok etdi.







